

TA'LIM KONSALTINGI — IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Aliev P. K., Ten I. V.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Bozor infratuzilmasi bozor mexanizmining eng muhim elementi bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bozor infratuzilmasining mavjudligi xo'jalik yurituvchi subektlarning muvaffaqiyatli faoliyati bilan belgilanadi. Iqtisodiyotning ushbu bo'g'inlari mavjudligi va rivojlanishi o'zaro bog'liq jarayondir.

Bozor iqtisodiyoti samarali ishlashining muhim omillaridan biri bu unga mos infratuzilmani shakllantirishdir. Bu mahsulot va xizmatlar, moliyaviy resurslar, qimmatli qog'ozlar, ishchi kuchi oqimlari harakatiga xizmat qiluvchi va ularning aylanishini tezlashtirishni ta'minlaydigan korxona va tashkilotlarning o'zaro bog'liq tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi. Konsalting faoliyati bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

So'nggi yillarda konsalting xizmatlariga talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu jahon iqtisodiyotining globallashuvi bilan bog'liq bo'lib, axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlari va global axborot tarmoqlari korxona chegaralari, ishlab chiqarish texnologiyalari, boshqaruv va biznes haqidagi tasavvurlarni o'zgartirmoqda. Aytish mumkinki, konsalting xizmatlari bozorining shakllanishi ob'ektiv hodisadir. Iqtisodiyotdagi keskin o'zgarishlar davrida konsalting xizmatiga alohida ehtiyoj seziladi. Bir qator adabiyotlarni o'rganish natijasida aytish mumkinki, "konsalting" tushunchasining ta'riflarini ko'plab adabiyotlarda uchratish mumkin, shuning uchun to'liq va ob'ektiv tasavvurni shakllantirish uchun biz ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

- Konsalting - mijozga amaldagi me'yoriy-huquqiy baza doirasida korxona (tashkilot) ning joriy moliyaviy-iqtisodiy holatini optimallashtirishda yordam beradigan maxsus tajriba, metodologiya, xulq-atvor texnikasi, kasbiy ko'nikmalar yoki boshqa resurslar bilan ta'minlashdir [1].

- Konsalting - bu ilm-fan va ilg'or tajribalardan foydalanish asosida ishlab chiqarishni boshqarishni ratsionalizatsiya qilishning samarali shaklidir [2].

- Konsalting - bu mijoz bilan birgalikda ishlab chiqilgan maslahatlar, tavsiyalar va yechimlar ko'rinishida amalga oshiriladigan muammolarni hal qilishda turli tashkilotlarga (mijozlarga) professional yordam ko'rsatishdir [3].

- Konsalting - bu mijozga mustaqil va ob'ektiv maslahat beradigan va ixtisoslashgan kompaniya yoki mutaxassis tomonidan mijoz kompaniyasining muammo va imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilish uchun taqdim etiladigan xizmatdir [4]. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiyotda konsalting xizmatlarining bir turi sifatida ta'lim konsaltingini rivojlantirish juda dolzarb bo'lib, bunda kadrlarga ta'lim berish va qayta o'qitish, ilmiy yo'naltirish, kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish orqali zamonaviy iste'molchilar talablarini qanoatlantiradigan mahsulot (xizmat) yaratish mumkin. Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida sezilarli darajada intellektual salohiyat to'plangan bo'lib, uni oliy o'quv yurtlarining konsalting faoliyati yordamida turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalarning amaliy faoliyatida amalga oshirish mumkin.

Ta'lim xizmatlari o'quv va ilmiy ma'lumotlar hajmini ma'lum bir dastur bo'yicha shaxsga berilgan umumiy va maxsus bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar yig'indisi sifatida ifodalaydi [5].

Oliy ta'lim sohasida konsalting xizmatlari - bu potensial iste'molchilarga ma'lum bir kasbiy faoliyatda o'z vazifalarini yanada samarali bajarishga imkon beruvchi zarur axborot resurslari bilan ta'minlash bo'yicha ta'lim xizmatlarini anglatadi. Ta'lim konsaltingi turlari 1-rasmda keltirilgan.

Jarayonli - zarur boshqaruv qarorlarini birgalikda (mijoz va maslahatchi) izlash va aniqlash		Ekspert xizmati - maslahatchilar tomonidan ekspert xulosasi xizmatlarini ko'rsatish va (yoki) buyurtma bo'yicha mijoz uchun tavsiyalar ishlab chiqish
	Ta'lim konsaltingi	
Trening - maslahatchi tomonidan mijozlar faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga va ushbu faoliyatni optimallashtirishga qaratilgan o'quv jarayoni orqali mijozlarga bilim va tajribani uzatish bo'yicha xizmatlarni taqdim etish		Joriy etish - mijoz manfaatlariga ta'luqli, u bilan oldindan kelishilgan va birgalikda qabul qilingan boshqaruv qarorlarini bevosita amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish

1-rasm. Ta'lim konsaltingi turlari

Oliy ta'lim sohasidagi konsalting xizmatlari hamkorlar bilan ishlashni tashkil etishga yo'naltirilgan «B2B» xizmatlar («business-to-business») turiga kiradi. Bundan tashqari, konsalting xizmatlari «B2G» xizmatlar («business-to-government») turida juda keng rivojlangan, chunki davlat eng yirik investor sifatida ta'lim konsalting xizmatlarining faol iste'molchisi hisoblanadi va oliy ta'lim muassasalari bilan faol hamkorlik qiladi. Oliy o'quv yurtlarida konsalting xizmatlarini qo'yidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida konsalting xizmatlarining tasniflanishi.

Oliy ta'lim muassasalarining faoliyat turlari	Konsalting xizmatlari turlari
Ta'lim faoliyati	o'quv fanlari bo'yicha konsalting; o'quv dasturidan tashqari alohida fanlarni chuqur o'rganish; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; Treninglar
Ilmiy faoliyat	grant tanlovlarida ishtirok etish; litsenziyalangan xizmatlar yaratish; patentlash; e'lon qilingan mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish; ilmiy hisobotlarni tayyorlash; ilmiy maqola va monografiyalar tayyorlash;

Ekspertlik faoliyati	turli ob'ektlar, faoliyat turlari bo'yicha ekspertiza xulosalarini tayyorlash; tashkilotlar, korxonalar talabiga binoan tavsiyalar ishlab chiqish.
----------------------	--

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va intellektual faoliyati natijasida olingan bilimlarni muntazam ravishda tijorat maqsadlarida foydalanish uchun bilim va texnologiyalarni oliy ta'lim muassasalari muhitidan ishlab chiqarishga o'tkazishni ta'minlaydigan tizim yaratilishi kerak. Bunday tizim oliy ta'lim tashkilotlarini innovatsion ixtirolar yaratishni rag'batlantirish, ushbu ixtirolarga berilgan patentlar sonini ko'paytirish, oliy ta'lim sohasidagi ilmiy va intellektual faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilishi mumkin.

Ma'lumki, konsalting xizmatlari to'planish xususiyatiga ega emas, bu esa ushbu faoliyat turini tashkil etishda qiyinchiliklarga olib keladi. Shu sababli turli xil kommunikatsion texnologiyalar va innovatsion salohiyatni to'plash imkoniyatlarini kashf etish talab etiladi. Bunday imkoniyatlar oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va intellektual faoliyati natijasida olingan bilimlarni tijorat maqsadlarida amalga oshirish bilan bevosita bog'liq.

Yuqoridagi maqsadlarga erishishda oliy ta'lim muassasalarilarda ta'lim xizmatlarining umumiy hajmida konsalting xizmatlari ulushini oshirish, OTMlarning konsalting bo'limlari brendini mustahkamlash, oliy ta'lim sohasida konsalting xizmatlari sifatini oshirish kabi yo'nalishlardan keng foydalanish mumkin.

Konsalting xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy e'tibor konsalting xizmatlari samaradorligini oshirish, mijozlar va bozorlarni aniqlash, professor-o'qituvchilarning konsalting faoliyatini rag'batlantirish kabi masalalarni hal qilishga qaratilishi kerak.

Bizning fikrimizcha konsalting xizmatlarida inson kapitalini shakllantirishning asosiy muammolari qo'yidagilar: maslahatchilar faoliyatining mazmuni va tashkiliy-huquqiy xususiyatlari, ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida aniq tasavvurlarning yo'qligi; maslahatchi o'z kasbiy lavozimini amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan vakolatlar to'plamining yo'qligi, bu esa mutaxassislar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi; maslahatchilarni tayyorlash yo'nalishlari va shakllarining noaniqligi; maslahatchilar lavozimiga da'vogarlarini tanlash mexanizmlarining noaniqligi [6].

Konsalting xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi belgilarning namoyon bo'lishiga kelsak, bu jihatdan ta'lim konsalting xizmatining intellektual xizmat sifatida xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Iqtisodiy adabiyotlarda intellektual xizmatlar deganda yangi bilimlarni ishlab chiqarish va egallash jarayoni bo'lgan iqtisodiy faoliyat tushuniladi [7]. Ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, bu jarayon konsalting faoliyati bilan bevosita bog'liq, chunki u iste'molchiga tegishli ma'lumotlarni uzatishga qaratilgan.

Qator iqtisodiy tadqiqotlarda, intellektual xizmatlarning quyidagi xususiyatlariga alohida ustuvor ahamiyat berilgan:

1. Fan va intellektual sig'imlilik. Intellektual xizmatlar ilmiy tadqiqotlar va intellektual faoliyatning yuqori xarajatlari evaziga shakllantiriladi, masalan, bu yerda yangi bilimlarni yaratishga qodir bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ular bo'yicha malakali xizmatlarni, shu jumladan konsalting xizmatlarini ko'rsatish xarajatlari hisobga olinishi kerak. Ko'pgina hollarda, ilmiy bilimlarni ishlab chiqarish, shuningdek, intellektual xizmatlar maxsus uskuna va texnologiyalarni talab qiladi, bunda ularni sotib olish xarajatlarini ham hisobga olish shart.

2. Intellektual xizmatlarni taqdim etishga ixtisoslashgan yuqori malakali kadrlar, shuningdek, analitik fikrlash qobiliyati, tadqiqotda va manfaatdor iste'molchiga intellektual xizmatlarni taklif qilish usullarida ijodkorlik kabi qo'shimcha malakalarning mavjudligi.

3. Intellektual xizmatlar natijasi axborot xarakteriga ega bo'lib, bu xizmatni iste'mol qilish jarayonida iste'molchining bilimlari oshishiga yordam beradi.

4. Axborot-kommunikatsiya aspekti. Bu mijozni qiziqtirgan muammo to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat ko'rsatilishidan oldin va keyin qayd etilishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, iste'molchi bilan axborot-kommunikatsiya usullaridan foydalangan holda kelajakda ushbu muammoning oldini olish usullari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan bog'liq keyingi konsalting xizmatlarini ko'rsatish mumkin.

5. Iste'molchi va maslahatchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonining muvaffaqiyati, mijoz uchun intellektual xizmatlar natijasida olingan ma'lumotlarning foydaliligi, ushbu ma'lumotni amalga oshirish imkoniyati kabi tarkibiy qismlar bilan belgilanadigan xizmatlar sifatini baholashning murakkabligi.

Intellektual konsalting xizmatlarining samaradorligini baholash usullari juda xilma-xildir, ammo ushbu jarayonni standartlashtirishga yagona yondashuvlarning yo'qligi xizmat sifatini baholashning ishonchililigi pasaytiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarining umumiy hajmida konsalting xizmatlari ulushini oshirish, OTMlarning konsalting bo'limlarining brend pozitsiyalarini mustahkamlash, oliy ta'lim sohasida konsalting xizmatlari sifatini oshirish kabi marketing strategiyalaridan keng foydalanish lozim. Oliy ta'lim muassasalarilarning konsalting bo'limlari brend pozitsiyalarini mustahkamlash strategiyasi OTMning tan olinishini, konsalting sifatini, mijozlar va hamkorlarning sodiqligini oshirish, konsalting madaniyatini rivojlantirish, OTMning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, raqobatchilarga nisbatan ustunlikni shakllantirish usullarini joriy etishga qaratilishi shart.

Mijozlar va hamkorlarning sodiqligini oshirish masalasi juda muhimdir, chunki, faqat ta'lim konsaltingi xizmatlari sifatidan mamnun bo'lgan mijozlarga o'z maslahatchilariga eng yuqori sodiqlikni namoyish etadilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim xizmatlarini amalga oshiruvchi ko'plab muassasalarda boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanishi sust darajada. Ushbu muassasalarda o'quv jarayonini tashkil etish sifati va mazmuni boshqaruvning iqtisodiy tamoyillaridan ustun qo'yilgan. Ushbu jarayonlar teng ravishda amalga oshirilishi kerak bo'lsa-da, zamonaviy OTMlar uchun samarali boshqaruv juda zarur[8].

Xorijiy OTMlar faoliyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, OTMning iqtisodiy samaradorligi eng avvalo uning nufuzi bilan bog'liq. Ta'lim tizimining zamonaviy iqtisodiyotga integratsiyalashuvi ta'lim haqidagi fikrni va uning jamiyatdagi o'rnini o'zgartirib yubormoqda. Ta'lim ko'proq iqtisodiy omil va ishlab chiqarish manbai sifatida qaralmoqda va natijada unga bozorga mos keladigan talablar qo'yilmoqda. Iqtisodiy nuqtai nazardan, ta'lim muassasasining asosiy aktivlari – bu shakllangan nufuz, intellektual va ijtimoiy kapitaldir. Ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida ushbu turdagi aktivlarni boshqarish tobora professional yondashuvni talab qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu sohadagi professional konsalting ta'lim sohasida menejment sifatini oshirish, shuningdek, alohida ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim manbai bo'lishi mumkin.

Transformatsiya davrida ta'lim sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun reputatsion konsaltingning quyidagi chora-tadbirlari va texnologiyalarini taklif qilish mumkin: OTMlarning ilmiy salohiyatini integratsiya qilish orqali fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish va rivojlantirish; ilmiy elitani shakllantirish maqsadida oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktorantura PhD, DSc.) va xususan, maqsadli doktorantura tizimini takomillashtirish; mavjud markazlarni rivojlantirish asosida mavjud ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlash; fundamental tadqiqotlar natijalarini yuqori texnologiyalar sohasidagi istiqbolli amaliy ishlanmalarga tezkor joriy etish maqsadida fanning sanoat tarmoqlari bilan integratsiya mexanizmini ishlab chiqish; tahliliy markazlar, xususan, nanotexnologiyalar va ta'lim texnologiyalarini yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqotlarning moddiy texnik bazasini yaxshilash va ularni integratsiya qilish; OTM joylashgan mintaqaning ilmiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish [6].

Yuqoridagilarni samarali amalga oshirish shartlari quyidagicha bo'lishi mumkin: intellektual mulk munosabatlarining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish va hududlarning innovatsion muhitini shakllantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish; mintaqaviy va respublika darajasida texnologik markazlarni yaratish; OTMlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish asosida texnopark va biznes-inkubatorlarni shakllantirish va rivojlantirish; texnoparkning kichik imsig'imli korxonalarini rivojlantirish uchun OTMning innovatsion fondini yaratish; iqtisodiyotda shu jumladan, yuqori texnologiyalar sohasida klasterlarni tashkil etish dasturlarini ishlab chiqish [7]. Umuman olganda, oliy ta'lim sohasida konsalting faoliyatining barqaror va samarali faoliyat yuritishining natijaviy sifat ko'rsatkichlari ta'lim berilgan, ma'lumotli va tayyorlangan mutaxassisning individual sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi, bular: jamiyat va davlat rivojlanishining beqaror, o'tish, inqirozli davrlarida korxona, tashkilot, bo'linmaning barqaror ishlashini ta'minlash qobiliyati; o'zgarishlarga moslashish, mutaxassislik yoki faoliyat turini tezda o'zlashtirish qobiliyati; olingan malakaga muvofiq mutaxassislik bo'yicha yuqori sifatli ishlarni bajarish qobiliyati; mamlakatning imsig'imli, innovatsion iqtisodiyotini rivojlantirish uchun tabiiy va boshqa resurslardan puxta va oqilona foydalanish qobiliyati; jamiyatning gumanitar va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish zarurligini anglaydigan madaniyatli shaxs qiyofasi va xususiyatlarining mavjudligi [8].

Xulosa qilib aytganda, ta'lim konsaltingi xizmatlari ko'lamini kengaytirish qo'yidagi kabi ko'plab imkoniyatlar yaratadi: zamonaviy bilim va boshqaruv usullarini joriy etish asosida korxonaning amaliy muammolarini hal qilishga yordam beradigan yuqori sifatli konsalting xizmatlarini olish; ilmiy tadqiqotlar natijalarini boshqaruv qarorlarining sifati va samaradorligini oshirish uchun korxonalarining boshqaruv faoliyatiga integratsiya qilish; oliy ta'lim muassasalarida konsalting xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish; konsalting xizmatlari iste'molchilarining amaliy tajribasini axborot bazasi va uslubiy bilimlar bilan boyitish.

ADABIYOTLAR

1. Шейн Э. Процесс консалтинга. Построение взаимовыгодных отношений "клиент—консультант" / Э. Шейн. – СПб: Питер, 2009 - 374 с
2. Ефремов В.С. Управленческий консалтинг как бизнес. // www.bcg.ru.
3. Липпиг, Г. Консалтинговый процесс в действии / Г.Липпиг, Р.Липпиг; пер. с англ. -СПб.: Питер, 2007. – 256 с
4. Токмакова Н.О., Андриянова М.В. Менеджмент-консалтинг, / Н.О.Токмакова, М.В. Андриянова. - М.: ЕАОИ, 2009.
5. R.I.Nurimbetov "Oliy ta'lim sifati menejmenti" uquv-uslubiy majmua Toshkent., 2017
6. Сорокина Н.Д. Образование в современном мире. / Н.Д. Сорокина - М.,2014
7. Василенко В.Н. Особенности консалтинговой деятельности в образовании. / В.Н. Василенко. // Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технология. - № 1 (3). – 2010

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda ta'lim konsaltingining o'rni, uning ahamiyati ochib berilgan. Ta'lim konsaltingi turlari va uning tasniflanishi, ushbu xizmatni ko'rsatishda OTM nufuzining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Ta'lim konsaltingini rivojlantirish yo'nalishlari taklif etildi hamda mazkur xizmatni rivojlantirish natijasida paydo bo'ladigan imkoniyatlar ko'rsatib berilgan.

Аннотация. В статье раскрывается роль и значение образовательного консалтинга в развитии отраслей экономики. Показаны виды образовательного консалтинга и его классификация, значение престижа вуза в предоставлении данной услуги. Предложены направления развития образовательного консалтинга и показаны возможности, возникающие в результате развития данной услуги.

Abstract. The article reveals the role and importance of educational consulting in the development of economic sectors. The types of educational consulting and its classification, the importance of the university's prestige in providing this service, are shown. The directions for the development of educational consulting are proposed and the opportunities arising from the development of this service are shown.

Kalit so'zlar: ta'lim konsaltingi, oliy ta'lim muassasalari, ta'lim xizmatlari, ilmiy faoliyat, intellektual salohiyat.

Ключевые слова: образовательный консалтинг, высшие учебные заведения, образовательные услуги, научная деятельность, интеллектуальный потенциал.

Keywords: educational consulting, higher education institutions, educational services, scientific activity, intellectual potential.
